

INFLATSIYA VA INFLATSIYAGA QARSHI SIYOSAT

O'rinboyeva Yulduz Pirnazarovna

I.f.f.dok., dotsent

Boynazarova Maxliyo Sherbek qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada iqtisodiyotdagi eng muhim tushunchalardan biri bo'lgan inflatsiya haqida to'xtalib o'tamiz. Bu maqolada inflatsiya nimaligi, uning iqtisodiyotdagi o'rni va uning iqtisodiyotga ta'siri haqida aytib o'tiladi. Inflatsiyaga qarshi ko'rilayotgan chora – tadbirlar haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: inflatsiya, tovar-pul muvozanati, budjet, kamomad, emissiya, monopol, yalpi talab, iqtisodiyot, pul massasi, inflatsiya turlari, giperinflatsiya, inflatsiya ta'siri, aksilinflatsiya siyosati, pul – kredit siyosat, fiskal siyosat, bank, kredit.

INFLATION AND ANTI-INFLATION POLICIES

Annotation: In this article we will talk about inflation, one of the most important concepts in economics. This article will talk about what inflation is, its place in the economy and its impact on the financial system. Information is provided about the measures taken against inflation.

Key words: inflation, commodity-money balance, budget, deficit, emission, monopoly, aggregate demand, economy, money mass, inflationary types, hyperinflation, inflationary effects, axilnflationary policies, monetary policy, fiscal policy, banking, credit.

Inflyatsiya pul qadrsizlanishini bildiradi. Inflyatsiya har yili rivojlangan davlatlarda o'rtacha 7 % tashkil etadi. Barcha iqtisodiy aloqalar inflyatsiyani hisobga olgan holda amalga oshiriladi. "Inflyatsiya" termini dastlab 1861—1865-yillarda Shimoliy Amerikada, so'ngra Fransiya va Germaniyada qo'llangan.

Inflyatsiya pulning qadrsizlanishi — tovar-pul muvozanatining buzilishi natijasida muomalada xo'jalik aylanmasi ehtiyojlaridan ortiq darajada qog'oz pullar

miqdorining ko'payib ketishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi. Inflyatsiya birinchi galda sifati yaxshilanmagan holda tovarlar va xizmatlar narxining ko'tarilishi ko'rinishida, shuningdek, oltin va chet el valyutasining milliy valyutaga nisbatan qimmatlashishi shaklida yuz beradi. Товар ishlab chiqarishning to'lov qobiliyatiga ega talab o'sishidan ortda qolishi, bozorda talabga javob bermaydigan tovarlarning ko'payib ketishi, byudjet kamomadlarini qoplash uchun qo'shimcha pul emissiyasi, investitsiyalarni emissiya hisobidan moliyalashtirish, monopol narxning mavjudligi, narxni oshib ketishidan hadiksirab tovarlarni keragidan ortiq xarid etish, mamlakatga qadsizlangan chet el valyutasining ko'plab kirib kelishi va boshqa omillar Inflyatsiyani yuzaga keltiradi. Inflyatsiya jarayoni narxlarning o'sishi, yalpi talabning yalpi taklifdan oshib ketishi, makroiqtisodiy beqarorlik natijasidir.

Inflatsiyaning turlari. Inflatsiya iqtisodiyotdagi narxlarning umumiy darajasining oshishi bo'lib, u turli omillar ta'sirida yuzaga keladi. Ushbu omillarga qarab, inflatsiya bir nechta turlarga bo'linadi. Quyida eng asosiy inflatsiya turlari va ularning xususiyatlari:

1. **Talab inflatsiyasi (Demand – pull inflation)** – bozordagi talabning taklifdan ortiq bo'lishi natijasida narxlarning oshishi.

2. **Taklif inflatsiyasi (Cost – push inflation)** – ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi (xomashyo, ish haqi, energiya narxlari) tufayli mahsulot va xizmatlarning qimmatlashishi.

3. **Strukturaviy inflatsiya (Structural inflation)** – iqtisodiy tizimning ichki muammolari va ishlab chiqarishning samarasizligi tufayli yuzaga keladigan inflatsiya.

4. **Pul massasi inflatsiyasi (Cash – weight inflation)** – bozorda ortiqcha pul muomalaga chiqarilishi natijasida narxlarning ko'tarilishi.

5. **Import qilinadigan inflatsiya (Imported inflation)** – tashqi bozorlarda narxlarning oshishi natijasida ichki bozorda ham narxlar ko'tarilishi.

6. **Kutilayotgan inflatsiya (Expected inflation)** – aholi va biznes subyektlarining kelajakda narxlar oshishiga bo‘lgan ishonchi tufayli narxlarning oldindan ko‘tarilishi.

7. **Giperinflatsiya (Hyperinflation)** – mamlakat iqtisodiyotida tartibsizliklar, ortiqcha pul chiqarish va kuchli iqtisodiy inqiroz sababli juda yuqori inflyatsiya darajasining yuzaga kelishi.

Inflatsiyaning turlari mamlakat iqtisodiyotining turli yo‘nalishlarida har xil ko‘rinishda uchraydi. “*Talab inflatsiyasi*”, asosan, yuqori iste‘molga asoslangan, katta davlat xarajatlariga ega va rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyot yo‘nalishlarida uchrasa, “*Taklif inflatsiyasi*” esa energiya va xomashyo yetkazib berish bilan zanjir bog‘liq bo‘lgan, ishlab chiqarish sohasiga tayanadigan hamda qishloq xo‘jaligi yatakchi bo‘lgan davlatlarning iqtisodiyot yo‘nalishlarida ko‘proq uchaydi. “*Strukturaviy inflatsiya*” bozor iqtisodiyoti sust rivojlangan, transport va logistika muammolari mavjud va qattiq regulaytsiya va davlat aralashuvi bo‘lgan mamlakatlarning iqtisodiyotida uchrab turadi. “*Import qilinadigan inflatsiya*” o‘zida yetarlicha ishlab chiqarish bo‘lmagan va, asosan, import mahsulotlariga bog‘liq bo‘lgan, milliy valyutasi beqaror bo‘lgan, neft va oziq – ovqat import qiluvchi mamlakatlarning iqtisodiyot yo‘nalishlarida uchraydi. O‘zbekiston (inflatsiya 9.8 %), Turkiya (inflatsiya 44.38 %) kabi rivojlanayotgan, Janubiy Koreya (inflatsiya 1 – 2 %) va Yaponiya (inflatsiya 3.1 %) kabi rivojlangan davlatlar iqtisodiyotida import qilinadigan inflatsiya uchraydi.

Inflatsiyaning ta‘siri

Inflatsiya da Inflatsiya darajasining ortishi mamlakat iqtisodiyotining turli jabhalariga ta‘sir o‘tkazadi. Jumladan, aholi farovonligi, biznes faoliyati va investitsiyalar, mamlakatning iqtisodiy siyosati kabi sohalarda inflatsiya o‘z aksisni topadi. Inflatsiya darajasi yuqorilagani sari quyidagi iqtisodiy o‘zgarishlar ro‘y beradi:

- Pulning xarid qobiliyati pasayadi.
- Jamg‘armalar qadrsizlanadi.
- Ishlab chiqarish xarajatlari ortib, iqtisodiy o‘sish sekinlashadi.

- Foiz stavkalari oshib, kredit olish qiyinlashadi.
- Ish haqi va pensiyalar real qiymatini yo'qotishi mumkin.

Inflatiyaga qarshi siyosat ya'ni aksinflatsiya siyosati – inflatsiya darajasini pasaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida davlatning turli siyosiy vositalardan foydalanishi orqali inflatsiyani nazorat qilishidir. Pul – kredit siyosati (Monetar siyosat), Fiskal siyosat (Byudjet siyosati), narxlarni nazorat qilish (Price control) – bu inflatsiyaga qarshi siyosatning asosiy turlari hisoblanadi

Pul – kredit siyosati mamlakat Markaziy banki tomonidan amalga oshiriladi va inflatsiyani pul massaasi va foiz stavpkalari orqali boshqarilshga qaratilgan bo'lsa, Fiskal siyosati davlatning inflatsiyani nazorat qilishi uchun soliqlar va davlat xarajatlarini tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Monetar siyosatida asosiy foiz stavkalarini oshirish orqali kredit olishni qimmatlashtiradi, bu esa investitsiyalar va iste'mol talabini pasaytiradi. Bundan tashari, Byudjet siyosatida soliqlarni oshirish orqali aholi qo'lida qo'lida ortiqcha sarflanadigan daromadning kamayishiga va bu esa talabning pasayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G'iyosiddin Abdullayevich Safarov, Zokirjon Olimjon O'g'li Bahodirov INFLYATSIYANING MAMLUKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI // Academic research in educational sciences. 2022. №12.
2. Turanboyev, Boburjon & Abdullaev, Akhrorjon. (2023). INFLYATSIYANING QIMMATLI QOG'OZLAR DAROMADIGA TA'SIRI. Young Scientist. 2. 88-100. 10.5281/zenodo.7801579.
3. A.A.Omonov, T.M.Qoraliyev —Pul va banklar darslik
4. Kamolova L.I. Inflyatsiya va uni tartibga solishning dolzarb muammolari: tizimli yondashuv // Деньги и кредит. 2021. № 3.
5. Axmedov E.E. (July 28th 2022). Inflyatsiyani targetlash va uning iqtisodiyotga ta'siri.

6. **Samuelson, P. A., & Nordhaus, W. D. (2010).** *Economics* (19-nashr). McGraw-Hill Education.
7. **Mishkin, F. S. (2015).** *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets* (11-nashr). Pearson Education.
8. **Krugman P., Wells R. (2018).** *Macroeconomics*. Worth Publishers.
9. **Dornbusch R., Fischer S., Startz R. (2017).** *Macroeconomics*. McGraw-Hill Education.
10. **Raxmatullayeva, F., & Hamdamova, M. (2024).** INFLATSIYA VA INFLYATSIYAGA QARSHI SIYOSATI. In *Yosh olimlar* (Vol. 2, Number 13, pp. 110–112). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11202130>
11. <https://en.m.wikipedia.org/>
12. <https://www.finlit.uz>
13. <https://www.cbu.uz>
14. <https://arxiv.uz/>